“ADOLAT”
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=367

2026-yil
5-son
may
ISSN 3093-8546



Maslahat va konsalting xizmatlari bo‘yicha ijrochining javobgarligini cheklash masalalari

Shahriddin Asadov,
Toshkent davlat yuridik universiteti
mehnat huquqi shubasi o‘qituvchisi
e-mail: shahriddinasadov@gmail.com

Аннотация. Mazkur maqolada maslahat va konsalting xizmatlari bo‘yicha ijrochining shartnomaviy javobgarligini cheklash yoki cheklanmagan javobgarlikni qo‘llash masalasi O‘zbekiston, Moldova, Ukraina, Germaniya, Fransiya, Italiya va Ispaniya huquq tizimlari hamda ilmiy-nazariy qarashlar asosida tahlil qilingan. Javobgarlikni cheklashning zaruriyatiga oid muammolar, cheklash doirasi, ayb darajasiga qarab differensiatsiyalashgan yondashuv va konsultantning javobgarlik asoslari ko‘rib chiqilgan.

Калит сўзлар. konsalting xizmatlari, ijrochi javobgarligi, javobgarlikni cheklash, shartnoma bahosi, fidutsiar majburiyat

Аннотация. В данной статье анализируются вопросы ограничения договорной ответственности исполнителя либо применения неограниченной ответственности в сфере консультационных и консалтинговых услуг на основе правовых систем Узбекистана, Молдовы, Украины, Германии, Франции, Италии и Испании, а также научно-теоретических подходов. Рассматриваются проблемы необходимости ограничения ответственности, пределы такого ограничения, дифференцированный подход в зависимости от степени вины, а также договорные и деликтные основания ответственности консультанта.

Ключевые слова. консалтинговые услуги, ответственность исполнителя, ограничение ответственности, цена договора, фидуциарная обязанность

Annotation. This article analyzes the issues of limiting contractual liability or applying unlimited liability of service providers in consulting and advisory services based on the legal systems of Uzbekistan, Moldova, Ukraine, Germany, France, Italy, and Spain, as well as doctrinal and theoretical approaches. The study examines the legal and practical necessity of limiting liability, the scope of such limitations, a differentiated approach depending on the degree of fault, and the contractual and tort-based grounds of consultants’ liability.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Keywords. consulting services, contractor liability, limitation of liability, contract value, fiduciary duty

Kirish. Maslahat va konsalting xizmatlari iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida jahon bozorida tobora keng o‘rin egallab bormoqda. Global konsalting bozorining hajmi 2023-yilga kelib 300 milliard AQSH dollaridan oshib ketdi. Biroq ushbu xizmatlar sohasida javobgarlik masalasi – xususan, ijrochi (konsultant)ning javobgarligini cheklash kerakmi yoki unga cheklanmagan javobgarlik yuklash lozimmi degan savol – ko‘pgina huquq tizimlarida yechimini topmagan bahsliq masala bo‘lib qolmoqda.

Konsalting xizmatlari o‘ziga xos xususiyatga ega: konsultant maslahat berish jarayonida buyurtmachi uchun katta iqtisodiy ahamiyatga molik qarorlar bazasini shakllantiradi, biroq bu maslahatni amalga oshirish maslahatnin to‘g‘riligi bilan bir qator boshqa qator omillarga ham bog‘liq. Shu sabab ijrochining javobgarlik doirasini aniqlash – u taqdim etgan maslahatning oqibatlari uchun javobgarlikni u to‘liq zimmasiga olishi kerakmi yoki bu javobgarlik cheklanishi lozimmi degan masala zamonaviy fuqarolik huquqi uchun dolzarb muammo hisoblanadi.

O‘zbekiston huquqi bu masalada aniq va tizimlashgan normalarga ega emas: Fuqarolik kodeksining umumiy normalari konsalting xizmatlarining o‘ziga xos tabiatini to‘liq qamrab ololmaydi. Shuning uchun chet el tajribasini o‘rganish va muqoyasa qilish alohida ahamiyat kasb etadai.

Asosiy qism. Konsultantning javobgarligini cheklash masalasi bo‘yicha ikki asosiy pozitsiyani belgilab olish mumkin: birinchisi cheklanmagan javobgarlik qo‘llanilishi kerakligi yuzasidan pozitsiya, ikkinchisi cheklangan javobgarlik qo‘llanilishi lozimligi yuzasidan pozitsiya.

Ba'zi yuqori riskli sohalarda beriladigan maslahatlar yirik investitsiya yoki biznes qarorlari qabul qilishga sabab bo‘ladi va shu sababli ushbu sohada faoliyat yuritayotgan konsultant yuqori ehtiyokorlik bilan harakat qilishi lozim. Ushbu turdagi munosabatlarda javobgarlikning chenklanishini konsultantning majburiyat bajarilishidagi ehtiyotkorligi susayishida olib kelishi mumkin, chunki javobgarligi cheklanganligini biladigan maslahatchining majburiyatlarni vijdonan bajarishga rag‘bati susayishi ehtimoli mavjud.

Boshqa tomondan, olingan maslahatning muvaffaqiyatli realizatsiya qilinishi nafaqat maslahatning to‘g‘riligiga, balki, boshqa qator omillarga ham bog‘liq, shuningdek, konsalting xizmatlari narxi odatda konsultant maslahati natijasida buyurtmachi ko‘rishi mumkin bo‘lgan zarardan bir necha barobar kam bo‘ladi. Bundan tashqari, noto‘g‘ri maslahatga asoslanib qaror qabul qilish xatari buyurtmachi zimmasidami yoki konsultant zimmasidami degan savol hal etilmasa, iqtisodiy samaradorlik buziladi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Nemis huquqshunosi Klaus Larens fikriga koʻra, shartnoma javobgarligida taraflar muvozanati prinsipi asosiy oʻrin tutadi: “javobgarlik shartnoma bahosi bilan mutanosib boʻlishi va qasd yoki qoʻpol ehtiyotsizlikda cheklanmasligi kerak”[1]. Fransuz olimi Jak Jesten esa “taraflar shartnoma tuzishda xatar taqsimotini oʻzlari belgilashi mumkin”[2] degan fikrni ilgari suradi va javobgarlikni cheklashni buyurtmachi risklarni oʻz zimmasiga olganligi nuqtayi nazaridan talqin qiladi.

Postsovet huquq tizimlari ichida Oʻzbekiston, Moldova va Ukraina huquq tizimlari Kontinental huquq traditsiyasi asosida shakllantirilgan boʻlsa-da, konsalting xizmatlari boʻyicha javobgarlikni tartibga solishda turlicha yondashuvlar mavjud.

Oʻzbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining (FK) 327-moddasi majburiyatni buzganlik uchun umumiy javobgarlikni belgilaydi. FK 333-moddasiga koʻra taraflar shartnoma boʻyicha javobgarlikni shartnomada cheklashlari mumkin, biroq qasd asosida zarar yetkazilganda bunday cheklash haqiqiy emas. Konsalting xizmatlari uchun alohida javobgarlik normalari mavjud emas. 1017-modda tovar, ish, xizmatdagi nuqson natijasida uchinchi shaxslarga yetkazilgan zararni delikt asosida qoplashni nazarda tutadi. Konsultantning javobgarlik doirasi shartnoma bahosi doirasida cheklanishi mumkin boʻlsa-da, bu masala ilmiy va sud amaliyoti tomonidan batafsil ishlanmagan.

Moldova Fuqarolik kodeksining (2002-yilgi, 2019-yilda yangi tahrirda) zararni toʻliq qoplash prinsipini belgilaydi, xizmatlar shartnomasida ijrochining javobgarligini nazarda tutadi. Moldova qonunchiligiga koʻra shartnoma javobgarligini taraflar shartnomada cheklashlari mumkin, biroq majburiyatni bajarmaslik qasd asosida boʻladigan boʻlsa javobgarlikni oldindan cheklash haqiqiy emas. Moldova huquqshunoslari konsalting shartnomasida javobgarlikni vakolat va xavfning mutanosibligi prinsipiga asosan shartnoma bahosi doirasida cheklash maqsadga muvofiq deb hisoblaydi.

Ukraina Fuqarolik kodeksining zararni toʻliq qoplash prinsipini mustahkamlaydi, xususan, ayb mavjud emasligini isbotlash ijrochi zimmasidadir. Shartnoma javobgarligini taraflar yozma shartnoma orqali cheklashlari mumkin. Germaniya huquqi konsalting xizmatlari javobgarligini, asosan, Bürgerliches Gesetzbuch (BGB) – Fuqarolik kodeksining normalari orqali tartibga soladi. BGB konsalting shartnomasini xizmat koʻrsatish shartnomasiga (Dienstvertrag) yoki topshiriq shartnomasiga (Auftrag) bogʻlaydi. BGBga koʻra taraflar shartnomada javobgarlikni cheklashlari mumkin, biroq qasd (Vorsatz) uchun javobgarlik oldindan cheklanishi mutlaqo taqiqlangan (§276 Abs. 3 BGB). Qoʻpol ehtiyotsizlik (grobe Fahrlässigkeit) uchun javobgarlik esa, odatda, faqat tijorat shartnomalarida cheklanishi mumkin. Olinmagan foyda (§252 BGB) va toʻgʻridan-toʻgʻri zarar taqsimoti shartnoma shartlari orqali differensiatsiyalashgan tarzda belgilanadi.

Germaniya sud amaliyoti “uchinchi shaxslarni himoya qiluvchi shartnoma” doktrinasini ishlab chiqqan bo‘lib, unga ko‘ra konsalting shartnomasi uchinchi shaxsga ta'sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lsa, konsultant ushbu uchinchi shaxs oldida ham muayyan majburiyatlar zimmasiga oladi.

Nemis huquqshunosi Uli Huber (Ulrich Huber) fikriga ko‘ra, “konsultant javobgarligi shartnoma bahosiga proporsional bo‘lishi lozim[3], chunki taraflar xavfni shu nisbatda taqsimlaganlar. Nemis Bundesgerichtshof (BGH) sudi esa aniq pozitsiya bildirgan: “kasbiy maslahatchi javobgarligini shartnomada cheklash mumkin, ammo bunday cheklash qo‘pol ehtiyotsizlik yoki qasd bilan berilgan noto‘g‘ri maslahatni qamrab olmaydi.

Fransiya huquqida konsalting javobgarligi Code civil (CC) normalari orqali tartibga solinadi. Fransiya huquqining o‘ziga xos xususiyati – “non-cumul” prinsipi: shartnoma tomonlari delikt normalariga tayanolmaydi, faqat shartnomaviy normalar asosida da'vo qilishi mumkin va shartnoma javobgarligi oldindan ko‘rish mumkin bo‘lgan zarar doirasida belgilanadi. Taraflar shartnomada javobgarlik doirasini cheklashlari mumkin, biroq CC konsultant majburiyatini butunlay bekor qiladigan shartlarni haqiqiy emas deb topadi. Firibgarlik (dol) yoki qo‘pol aybning (faute lourde) mavjudligida javobgarlikni cheklash ham mutlaqo taqiqlanadi.

Fransuz olimi Jak Jesten shunday yozadi: “shartnoma javobgarligida taraflar xavfni o‘zlari taqsimlaydi; javobgarlikni cheklash shartnomaviy xavf taqsimotining bir ko‘rinishi bo‘lib, firibgarlik va aybni istisno etgan holda qonuniydir [4]. Jan-Lui Byordon esa konsultant javobgarligini shartnoma bahosi doirasida cheklash, ayniqsa kichik va o‘rta biznes konsaltingi uchun, xizmatlar bozorini demokratlashtiruvchi omil sifatida baholaydi.

Ko‘rib turganimizdek, konsultant javobgarligini cheklash doirasi masalasida huquq tizimlarida ikki asosiy yondashuv mavjud:

a) Shartnoma bahosi doirasida cheklash. Bu yondashuv bo‘yicha konsultant javobgarligi olingan haq doirasida belgilanadi.

b) Shartnoma bahosining bir necha barobari doirasida cheklash. Ayrim huquq tizimlari (Fransiya, Ispaniya) javobgarlik chegarasini shartnoma bahosidan 2–5 barobardan ko‘p bo‘lmagan miqdorda belgilashga yo‘l qo‘yadi. Bu yondashuv buyurtmachi manfaatlari bilan mutanosiblik va konsultant himoyasi o‘rtasidagi muvozanatni ta'minlaydi.

v) Javobgarlikni oldindan ko‘rish mumkin bo‘lgan zarar doirasida cheklash. Fransiya huquqida javobgarlik doirasi shartnoma tuzish vaqtida “oldindan ko‘rish mumkin bo‘lgan” (“prévisible”) zarar bilan cheklanadi. Bu yondashuv ham cheklash, ham oqilonalik prinsiplarini uyg‘unlashtiradi.

Bizning fikrimizcha, O‘zbekiston huquqi uchun optimal model quyidagicha bo‘lishi mumkin: oddiy ayb holatida javobgarlik shartnoma bahosining 2–3 barobari doirasida cheklanadi; qo‘pol ehtiyotsizlik yoki kasbiy standartlarni tizimli ravishda buzish holatida cheklov qo‘llanilmaydi; qasd holatida javobgarlik mutlaqo

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

cheklanmaydi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, maslahat va konsalting xizmatlari bo‘yicha ijrochi javobgarligiga asos bo‘luvchi holatlarni quyidagicha tizimlashtirish mumkin:

Noto‘g‘ri maslahat berish (misinformation/erroneous advice). Konsultant kasbiy standartlarga zid yoki faktik jihatdan noto‘g‘ri maslahat berganda javobgarlik yuzaga keladi.

Kasbiy standartlar va etika qoidalariga rioya qilmaslik. Huquqiy, moliyaviy, tibbiy va boshqa kasbiy maslahat sohalarida alohida kasbiy standartlar mavjud. Ushbu standartlarni buzish javobgarlik asosi hisoblanadi. Ispaniya sud amaliyotida “lex artis” prinsipi konsultant javobgarligini belgilashda asosiy mezon sifatida qo‘llaniladi.

Ma'lumotni yashirish yoki noto‘g‘ri taqdim etish. Konsultant buyurtmachiga shartnoma predmeti bilan bog‘liq material ma'lumotni yashirishi yoki noto‘g‘ri ma'umlot taqdim etishi javobgarlik asosi hisoblanadi. Fransiya huquqida “obligation de loyauté” (sadoqat majburiyati) konsultantni buyurtmachi uchun ahamiyatli ma'lumotni to‘liq oshkor etishga majbur qiladi.

Fidutsiar majburiyatni buzish. Anglo-sakson huquq tizimidan kirib kelgan fidutsiar majburiyat tushunchasi hozirda kontinental tizimlarda ham qo‘llanilmoqda. Konsultant buyurtmachi manfaatlarini shaxsiy manfaatlaridan ustun qo‘yishi lozim.

Mahfiylik majburiyatini buzish. Konsultant buyurtmachi haqidagi ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor etganda javobgarlik yuzaga keladi. Germaniyada “Verschwiegenheitspflicht” (mahfiylik majburiyati) kasbiy etika normasi sifatida huquqiy kuchga ega.

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, konsultant javobgarligi masalasida ayb darajasiga qarab differensiatsiyalashgan yondashuv eng optimal model hisoblanadi. Ushbu yondashuv ayrim mualliflar tomonidan ilgari surilgan va jahon amaliyotida tobora keng tan olinmoqda.

To‘g‘ri qasd (dolus directus) holatida – ya'ni, konsultant buyurtmachiga ataylab zarar yetkazish maqsadida noto‘g‘ri maslahat berganda – barcha tadqiqotchilar javobgarlikni cheklash mumkin emas, degan pozitsiyani qo‘llab-quvvatlaydi.

Ehtiyotsizlik (negligentia/Fahrlässigkeit) holatlarida esa javobgarlik cheklash masalasi huquq tizimlari orasida farqli yechiladi. Oddiy ehtiyotsizlikda (levis culpa) javobgarlikni shartnoma bahosi doirasida cheklash huquq tizimlarining aksariyatida mumkin deb hisoblanadi. Qo‘pol ehtiyotsizlikda (culpa lata/grobe Fahrlässigkeit) cheklash masalasi bahsli bo‘lib, Germaniya amaliyoti va Yevropa Ittifoqi tendensiyasi – qo‘pol ehtiyotsizlikda ham cheklashni istisno qilish tomon yo‘nalmoqda.

Xulosa. Maslahat va konsalting xizmatlari bo‘yicha ijrochi (konsultant) javobgarligini cheklash masalasini ko‘rib chiqish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Konsultant javobgarligini cheklash tarafdorlarinig ham va bunga qarshi boʻlgan olimlarning ham fikri asosli. Mutlaq pozitsiyani rad etish va ayb darajasiga qarab differensiatsiyalashgan yondashuvni qabul qilish optimal yechim hisoblanadi;

Toʻgʻri qasd yoki qoʻpol ehtiyotsizlik holatida javobgarlikni cheklash huquq tizimlarining aksariyatida taqiqlanadi va bu prinsip Oʻzbekiston huquqiga ham singdirilishi lozim;

Oddiy ehtiyotsizlik holatida javobgarlik shartnoma bahosining 2–3 barobari doirasida cheklanishi mumkin; bu yondashuv konsalting xizmatlari bozorini rivojlantirishga yordam beradi;

Oʻzbekiston Fuqarolik kodeksiga konsalting xizmatlari uchun alohida norma kiritilishi: javobgarlik asoslari (notoʻgʻri maslahat, standartlarni buzish, mahfiylikni buzish) javobgarlikni cheklash shartlari, ayb darajasiga qarab differensiatsiyalashgan javobgarlik belgilash zarur;

Konsalting xizmatlaridagi uchinchi shaxslarga yetkazilgan zarar masalasi Oʻzbekiston FK 1017-moddasining konsalting xizmatlariga nisbatan aniq qoʻllanilishi toʻgʻrisidagi qoʻshimcha tushuntirish yoki alohida norma orqali hal qilinishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati

1. Larenz K., Schuldrecht, 14. Aufl., München, 1987, § 29
2. Ghestin J., Traité de droit civil, Paris, 2001
3. Huber U., Leistungsstörungen, Tübingen, 1999)
4. Ghestin J., Traité de droit civil: Les obligations, LGDJ, Paris, 2001